



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

7 (81) 2025

**Сопредседатели редакционной
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:
М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
Б.З. АБДУСАМАТОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
М.Р. МИРЗОЕВА
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Ш.Т. САЛИМОВ
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Б.Б. ХАСАНОВ
Д.А. ХАСАНОВА
Б.З. ХАМДАМОВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
С.Н. ГУСЕЙНОВА (Азербайджан)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Ташкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

7 (81)

2025

июль

www.bsmi.uz
https://newdaymedicine.com E:
ndmuz@mail.ru
Тел: +99890 8061882

UO'K: 616.91:616.3-008.1

**POST - COVID – 19 ASSOTSIRLANGAN OVQAT XAZM QILISH TIZIMINING
KASALLIKLARINI PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH USULLARINI TUBDAN
TAKOMILLASHTIRILGAN DASTURLARNI ISHLAB CHIQUISH HOLATI VA ASOSLARI**

¹Boltaboev Alisher Murodjon o'g'li <https://orcid.org/0009-0008-8702-0392>

²Mamasaliev Nematjon Solievich <https://orcid.org/0000-0002-5013-9647>

²Mamasaliev Zohidjon Nematovich <https://orcid.org/0000-0002-0965-1104>

²Usmonov Burhonjon Umarovich <https://orcid.org/0000-0001-7092-0003>

³Boltaboyeva Dilrabo Imomali qizi <https://orcid.org/0009-0008-3539-7585>

¹Markaziy Osiyo Tibbiyot Universiteti O'zbekiston, Farg'ona, Burhoniddin Marg'inoniy ko'chasi 64
tel:+998 95 485 00 70 e-mail: info@camuf.uz

²Andijon davlat universiteti 170100, O'zbekiston Respublikasi, Andijon sh. Universitetskaya ko'chasi,
129-uy pochta: agsu_info@edu.uz telefon/faks: 0 (374) 223 88 30

³O'zbekiston Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Yangi
Turon ko'chasi 2-A uy Tel: +998 (73) 243-06-62 Email: info@fjsti.uz

✓ **Rezyume**

Jahon miyosida Covid – 19 pandemiyasiga bag'ishlanib olib borilgan tadqiqotlar va ularga bag'ishlangan nashrlar oqimini ko'payganligi va tobora ortib borishga davom etayotganligi adabiyotlar sharhidan bo'ladi yoki ular o'quvchi – tadqiqotchida shunday xulosa tug'diradi. Bu, so'zsiz, Covid – 19 infeksiyasida xaligacha "sirlar" saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi.

Bu muammolar orasida Post - Covid – 19 assotsirlangan ovqat xazm qilish tizimining kasalliklarini epidemiologiyasini o'rganish, profilaktikasi va davolash usullarini tubdan takomillashtirish masalasini ko'ndalang va o'tkir tibbiy – ijtimoiy muammo sifatida qo'yilganligiga ham shoxid bo'linadi.

Profilaktik gastroenterologiya zamonaviy tibbiyotda, masalan Post – Covid – 19 populyatsiyasi misolida rivojlanib o'z o'rnini topa boshlagan va uni takomillashtirib borish bo'yicha asosli ko'rsatma xamda tavsiyalarga ilmiy – ustuvor qarashlar ko'lami ortgan.

Ilmiy tadqiqotlarning mavzularini va yo'nalishlarini belgilashda ularni e'tiborga olish kerak bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, o'ta ilmiy – amaliy xulosa kelib chiqadi: Post – Covid – 19 assotsirlangan ovqat xazm qilish tizimining kasalliklarini zamonaviy epidemiologik, klinik – farmako – terapevtik va profilaktik jihatlarini o'rganish darajasi mutlaqo talabga javob bermaydi. Mavjud ma'lumotlarni profilaktik tibbiyot nuqtai nazardan taxlil qilinib va o'rganilib chiqishga zarurat va ehtiyoj kelib chiqqan.

Post – Covid – 19 assotsirlangan ovqat xazm qilish tizimining kasalliklarini profilaktikasi va davolash usullarini tubdan takomillashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish xolatlari va ularni asoslash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Bunday mazmunli va yo'nalishli xududiy tadqiqotlarga urg'u berib ularni kengaytirish xamda amalga oshirish – tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: COVID-19, Post - Covid – 19, assotsirlangan ovqat xazm qilish tizimining kasalliklari, epidemiologiya, profilaktika, davolash.

**ПОСТ-СТАТУС И ОСНОВА ДЛЯ РАЗРАБОТКИ ПРИНЦИПИАЛЬНО УЛУЧШЕННЫХ
ПРОГРАММ ПРОФИЛАКТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ ЗАБОЛЕВАНИЙ ОРГАНОВ
ПИЩЕВАРЕНИЯ, СВЯЗАННЫХ С COVID-19**

¹Болтабоев А.М., ²Мамасалиев Н.С., ²Мамасалиев З. Н ., ³Усмонов Б.У., ³Болтабоева Д.И.

¹Среднеазиатский медицинский университет Узбекистан, г. Фергана, ул. Бурхониддина
Маргинони, 64 телефон: +998 95 485 00 70 e-mail: info@camuf.uz

²Андижанский Государственный Университет 170100, Республика Узбекистан, г. Андижан,
улица Университетская, дом 129 Эл. почта: agsu_info@edu.uz Телефон/факс: 0 (374) 223 88 30

³Ферганский Медицинский Институт Общественного Здоровья Узбекистан, Ферганская область
город Фергана, улица Янги Турон №2-А Тел: +998 (73) 243-06-62 Email: info@fjsti.uz

✓ **Резюме**

Тот факт, что поток исследований и публикаций, посвящённых пандемии COVID-19, увеличился и продолжает увеличиваться во всём мире, очевиден из обзора литературы, и читатель-исследователь может сделать вывод, что это свидетельствует о наличии «загадок» в инфекции COVID-19.

Среди этих проблем сквозной и острой медико-социальной проблемой является также изучение эпидемиологии, профилактики и радикального совершенствования методов лечения заболеваний пищеварительной системы, ассоциированных с COVID-19.

Профилактическая гастроэнтерология начала развиваться и находить своё место в современной медицине, например, в отношении популяции пациентов, перенесших COVID-19, а сфера научных и приоритетных взглядов на обоснованные руководства и рекомендации по её совершенствованию расширилась.

Их следует учитывать при определении тем и направлений научных исследований. По нашему мнению, сделан вполне научный и практический вывод: уровень изученности современных эпидемиологических, клинических, фармакотерапевтических и профилактических аспектов постковидно-ассоциированных заболеваний органов пищеварения не соответствует требованиям. Существует необходимость и необходимость анализа и изучения имеющихся данных с позиции профилактической медицины.

Отсутствуют научные исследования, посвященные разработке кардинально усовершенствованных программ профилактики и лечения постковидно-ассоциированных заболеваний органов пищеварения и их обоснованию.

Расширение и проведение подобных содержательных и целевых региональных исследований с акцентом на них имеет медицинское, социальное и экономическое значение.

Ключевые слова: COVID-19, постковидный период, сопутствующие заболевания пищеварительной системы, эпидемиология, профилактика, лечение.

POST - STATUS AND BASIS FOR DEVELOPING FUNDAMENTALLY IMPROVED PROGRAMS FOR THE PREVENTION AND TREATMENT OF DISEASES OF THE DIGESTIVE SYSTEM ASSOCIATED WITH COVID-19

¹Boltaboev A.M., ²Mamasaliev N.S., ²Mamasaliev Z. N ., ²Usmonov B.U., ³Boltaboeva D.I.

¹Central Asian Medical University Uzbekistan, Fergana, Burhoniddin Marginoniy Street 64 tel:+998 95 485 00 70 e-mail: info@camuf.uz

²Andijan State University 170100, Republic of Uzbekistan, Andijan, Universitetskaya street, 129 E-mail: agsu_info@edu.uz phone/fax: 0 (374) 223 88 30

³Fergana Medical Institute of Public Health Fergana region, Fergana city, Yangi Turon street No. 2-A Tel: +998 (73) 243-06-62 Email: info@fjsti.uz

✓ **Resume**

The fact that the flow of studies and publications devoted to the Covid-19 pandemic has increased and continues to increase worldwide is evident from the literature review or the reader-researcher may conclude that this is an indication that there are still “mysteries” in the Covid-19 infection.

Among these problems, the issue of studying the epidemiology, prevention and radical improvement of treatment methods for Post-Covid-19-associated digestive system diseases is also a cross-cutting and acute medical and social problem.

Preventive gastroenterology has begun to develop and find its place in modern medicine, for example, in the case of the Post-Covid-19 population, and the scope of scientific and priority views on reasonable guidelines and recommendations for its improvement has increased.

They should be taken into account when determining the topics and directions of scientific research.

In our opinion, a very scientific and practical conclusion is drawn: the level of study of modern epidemiological, clinical, pharmacotherapeutic and prophylactic aspects of post-Covid-19 associated digestive system diseases does not meet the requirements. There is a need and a need to analyze and study the existing data from the perspective of preventive medicine.

There is a lack of scientific research on the development of radically improved programs for the prevention and treatment of post-Covid-19 associated digestive system diseases and their justification.

The expansion and implementation of such meaningful and targeted regional studies with an emphasis on them is of medical, social and economic importance.

Keywords: COVID-19, Post-Covid-19, associated digestive system diseases, epidemiology, prevention, treatment.

Dolzarbligi

Xozirgi vaqtda Post – Covid – 19 holat assotsirlangan ovqat xazm qilish tizimining kasalliklarini (Post – Covid – 19 Ass XAK) epidemiologiyasi, klinik kechishi xususiyatlari, profilaktikasi va davolash usullarini takomillashtirish haqidagi ma’lumotlar juda kam, O‘zbekiston va xususan, Farg‘ona vodiysi bo‘ylab esa umuman yo‘q. Klinik tekshiruvlarda olingan ilmiy natijalar bo‘yicha esa ovqat xazm qilish tizimi kasalliklari SARS – Cov – 2 virusi bilan kasallanilganda kasallikning og‘ir kechishi va noqulay prognoz uchun xavf guruhi bo‘lishi mumkinligiga ishonish uchun barcha asoslar mavjud. [WHO, 2020; Xi K. et al; 2020; Drapkina O.M va b.q., 2021].

Post-Covid-19 Ass XAK ikki yo‘l bilan kelib chiqadi, birinchisi, virusning o‘zini bevosita ta‘siri bilan va ikkinchisi, - koronavirus infeksiyasi davolash uchun qo‘llaniladigan dorili terapiya bilan bog‘liq holda. Demak, kasallikning bu turida (u 40 foizgacha yetib uchraydi) yatrogen xatar omili borligi tabiiy va xalq tabobati usullaridan davo yo‘llarini izlash manfaatlroq ekanligini e‘tiborga olish kerak bo‘ladi.

SARS-Covid-2 virus kira olishi mumkin bo‘lgan nishon hujayralar yuqori nafas yo‘llarini, oshqozonni va ichakning shilliq qavatlarida joylashgan bo‘ladi, ular orqali virus infeksiyasi bilan oshqozon – ichak tizimi (OIT) shikastlanadi. Xususan, ichak xujayralariga tushib, virus ichak devorining o‘tkazuvchanligini oshiradi, va shu bilan jigarga uriladi, bu yerda ham yallig‘lanishni keltirib chiqaradi. Muvofiq OIT tomonidan COVID-19 ning ekstra-pulmonal ko‘rinishlari kuzatiladi va hatto-ki, ustuvorlik qilinadi¹: Post-COVID-19 Ass XAK «eng ko‘p tarqalgan simptomlari» (istima, yo‘tal, xansirash, mialgiya va charchab qolish) va “nisbatan kam tarqalgan simptomlari” (tam va xid bilishni yo‘qolishi, anoreksiya, diareya, ko‘ngil aynishi, qayt qilish, qorin og‘rig‘i) 3/2 infitsirlangan bemorlarda aniqlanadi; 50,5 foizga yetib mijozlar shifoxonaga tushishadi; Har 3-bemorda diareya bo‘ladi; qayt qilish va qorin og‘rig‘i 3,9 va 3 foizdan qayd etiladi; 25% bemorlarda izolirlanib gastroentistinal simptomatika kelib chiqadi; har 4-bemorda gastroentistinal va respirator simptomlar bir vaqtda uchraydi; har 5-bemorda diareya COVID-19 ni birinchi belgisi bo‘lib paydo bo‘ladi 1 kundan to 14 kungacha davom etadi va defekatsiya chastotasi kuniga 4-6 tagacha yetadi; kasallikdan to‘liq sog‘ayish belgisi sifatida, bunday bemorlarda, axlatda SARS-COV-2ga virusologik taxlilni salbiyligini bo‘lishini e‘tiborga olish kerak bo‘ladi [Drapkina O.M., Maev. I.V va b.q., 2020; Anand ER et al; 2020; Cheing K. et al 2020; Hajifathalian K. et al 2020] Post-COVID-19 Ass XAK aholida ushbu klinik ko‘rinishning an’anaviy COVID-19 yoki kovid sindrom tavsiflaridan o‘ziga xos siljishni erta aniqlash, oldini olish va bexavf davolash – muxim tibbiy, iqtisodiy va prognostik ahamiyat kasb etadi. Ko‘pincha bemorlar kech murojaat qilishadi va kechikib Post-COVID-19 sindromiga tashxis qo‘yiladi, oqibatda yo‘qotishlar chastotasi axoli orasida ortadi. Shuning uchun mazkur yo‘nalishda tadqiqotlarni amalga oshirish va asosan, donozologik bosqichda Covid-19 va/yoki POST-COVID-19 sindromini barvaqt aniqlash imkoniyati, klinik tekshiruvlarga qiyosan, yuqori bo‘lgan epidemiologik tekshiruvlarga ustuvorlik berish maqsadga muvofiq bo‘ladi. To shu bugungacha, bunday ilmiy yo‘nalish keng yo‘lga qo‘yilmasligi oqibati bo‘lib jaxon miqyosida, yangi Covid-19/POST-COVID-19da ovqat xazm qilish tizimining shikastlanish belgilari odatda nafas olish belgilari soyasida qoladi va ular e‘tiborsiz qoldirmasligi kerak.

Tadqiqotning maqsadi POST-COV-19 assotsirlangan ovqat xazm qilish tizimining kasalliklarini epidemiologiyasini o‘rganish, profilaktikasi va davolash usullarini tubdan takomillashtirishdan iborat.

Material va usullar

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida 2022 – 2024 yillarda Farg‘ona shahri poliklinikalari ro‘yxatida va nazoratida turuvchi Covid – 19 infeksiyasini boshdan o‘tkazgan $\geq 48 - 60$ yoshli 1605 nafar aholi tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida Post – Covid – 19 axolining epidemiologik, klinik, biokimyoviy va fizikaviy taxlillarini o‘tkazish, skrining – profilaktika usullarining samaradorligini aniqlash uchun qon zardobi va maxsus so‘rovnomalalar (anketalar) natijalari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda so‘rovnomali, biokimyoviy, umumklinik, fizikaviy va statistik usullardan foydalanilgan. Zardobda laktat dehidrogenaza, interleysin, S – reaktiv oqsil, lipidlar spektri ko‘rsatkichlari baholangan antropometrik o‘lchovlar va umumiy xatar omillarini taxlillashda JSST (1997) mezonlaridan foydalanilgan.

Ushbu mavzuni chuqur va xar tomonlama tiniq anglab olish uchun, umuman, axolidagi zamonaviy xolatlarni OITga nisbatan ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

Baranovskiy A.Yu., Belyaev A.M., Kondrashina E.A (2019), Korochanskaya N.V va b.q (2019), Nojkina N.V va b.q (2018) va Leonchenko S.V va b.q (2021) yirik taxliliy ma’lumotlarini tasdiqlashiga,

¹ <https://gastroe.ru-news-company/postkovidnye-narusheniya-so-storony-zhat-i-pecheni>

xozirgi davrda xazm a'zolari kasalliklari (XAK) butun dunyo axolisida keng tarqalgan, ko'pincha surunkali residivlanib kechish bilan tavsiflanadi, asoratlanishlar va mehnat faoliyatini yo'qotish bilan o'tadi [1, b. 36 – 46; 4, b. 30 – 7; 7, b. 47 – 52; 5, b. 101 – 6].

M.A Butov va b.q (2012) kuzatuvlari xulosa berishadiki YaK bilan kasallanish chastotasi axoli orasida kamaygan. Buning asosiy sababi XXI boshidan YaKning xatar omillarining ta'sirlarini kamayishi deb ko'rsatiladi [2, b. 82 – 9].

V.T. Ivashkin va b.q (2020) tadqiqotlari bo'yicha OIT kasalliklari strukturasi o'zgarib borish tendensiyasi yaqin kelajakda xam o'zgarib boradi va bu tendensiya – ijtimoiy iqtisodiy sharoitlar, fan rivoji, demografik va boshqa omillar bilan bog'liq bo'ladi [3, b. 49 – 70].

Epidemiologik vaziyatni XAKga nisbatan o'zgarib turishi ushbu kasalliklarni, birinchi navbatda YaKni – ko'p omilli patogenetik bo'g'iniligi bilan tushuntiriladi. O'tkir infeksiyalarni, xususan, Covid – 19 infeksiyasini yangi xatar omili sifatida qo'shilib borayotganligi, so'zsiz, e'tiborni jalb qiladi va profilaktik yo'nalishlarni XAKda faol kengaytirib/yaratib borish zaruratini tug'diradi.

Simmerman Ya.S (2018), S. Levenstein et al (2015) va Topchiy T.B., Minushkin O.N (2016)lar o'ta muhim/kuchli, ahamiyatli XAK xatar omillari sifatida stress, Helicobacter pylori infeksiyasi tasdiqlanadi va ko'rsatiladi. Ushbu xatar omillar xisobini olib zamonaviy preparatlarni qo'llash va xalikobakteriozning eradikatsionli terapiyasining sxemasini o'zgarib borish XAK tarqalishi chastotasini o'zgartiradi. Aynan profilaktik tadbirlarni ustuvor qo'yib tashxislash va davolash amaliyotini rejalashtirish, olib borish va ta'minlash, xattoki Covid – 19 infeksiyasi pandmiyasi davrida xam, dolzarb masala va zaruriyat xisoblanadi.

M.A Butov va b.q tomonidan 2010 – 2019 yillar davrida o'tkazilgan monitoringda XAKga nisbatan ijodiy tomonga o'zgarish tendensiyasi tasdiqlangan bo'lsada, ushbu xulosa, o'ylaymizki, "jilovdor o'rinda" xam fanda va xam amaliyotda, qolish kerak.

XAK bo'yicha umumiy zamonaviy epidemiologik xulosalarni quyidagicha umumlashtirib ko'rsatish mumkin: 1) asoratlanmagan yara kasalligi bilan shifoxonaga tushish oxirgi 10 yilda 3,1 barobarga kamaygan; 2) xuddi shunday tendensiya 12 barmoqli ichak yara kasalligi uchun ham xos bo'lgan; 3) 12 baromoqli ichak yara kasalligi shifoxonaga tushish sur'ati erkaklarda ayollarga qaraganda 3,8 barobarga ko'p tasdiqlanadi; 4) gastrit va duodenit bilan shifoxonaga tushish xam oxirgi 10 yilda 2,8 martaga kamaygan.

Qayd etilgan ilmiy ma'lumotlarni xisobga olish Post - Covid – 19 assotsirlangan XAKda epidemiologik jarayonlarni nazorat etishda, profilaktikasi va davolash usullarini qaytadan ko'rib chiqib takomillashtirishda juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aynan tavsiyalar, yo'nalishlar, prognoz va kelajak uchun istiqbolli xulosalarni xalqaro miqyosda tadqiqotchilar bildirishgan [16, b. 831 – 7; 11, b. 115 – 19; 8, b. 15 – 39].

Mavjud adabiyotda keltirilgan ma'lumotlar yana tasdiqlaydiki xozirgi vaqtda Covid – 19 va postkovid sindrom bilan bemorlarning soni biyor va ular shifoxona sharoitida davolashni taqazo qiladi. Shunday bo'lsada xanuz shifoxonaga tushishni mezoni sifatida ko'rsatib tasdiqlab beruvchi prediktorlar Covid – 19da va u assotsirlangan xamroh kasalliklarda aniqlanib berilmagan. Lekin bu mavzuda ilmiy tadqiqotlar olib borila boshlangan va ayrim natijalari tadqiqotchilar tomonidan nashr qilingan.

Chunonchi, I.A Lizinfeld va xammual (2022) tomonidan 74314 nafar Covid – 19 assotsirlangan xamroh kasalliklar bilan bemorlarda observatsionli retrospektiv kogort tekshiruv o'tkazilgan.

Quyidagi 16 ta xatar omillari va xamroh kasalliklar ajratilib ular asosida Covid – 19 bilan bemorlar uchun prognostik model (kasalxonaga yotqazish ehtimoli darajasini ko'rsatuvchi) ishlab: chiqilgan: yosh, jins, tashxis qo'yilgan joy, tana xaroratini ko'tarilishi, rinit, xid bilishni yo'qolishi, xansirash, xamrox kasalliklar (YuQTK, bronx o'pka tizimi kasalliklari, onkologik kasalliklar, endokrin kasalliklar) ishlab chiqilgan mualliflar ushbu modeli Covid – 19 bilan bemorlarda mutaxassislar uchun juda samaraliligini namoyiy etishib bergan [6, b. 57 – 63].

Zon X et al (2019), Moreno – Perez O et al (2021) qisqa vaqt ichida shifokorlar Covid – 19 bilan bemorlar uchun ularni shifoxonaga yotkazish va yotkazmaslik masalasida tezkor qaror chiqarish qanchalik muhimligini ko'rsatuvchi dalillarni o'zlarining tadqiqotlari asosida ko'rsatishgan. Shu bilan birga mualliflar bu masala Covid – 19 bilan bemorlarda yetarlicha o'rganilmaganligini isbotli ta'kidlashgan [21, b. 57 – 65; 17, b. 1000 – 1].

Yang X et al (2020) tadqiqoti natijalari tasdiqlanganki, Covid – 19 va qardosh kaalliklar bilan bemorlarda, qiyosan olganda, nomaqbul yakun xavfi yuqori bo'ladi va katta miqdorda asoratlanish aniqlanadi [19, b. 475 – 81].

Boshqa tadqiqotlarda, jumladan, Gard S et al (2019) va Petrilli C.M et al (2020) ishlarida ko'rinadiki, Covid – 19 fonida kasalxonaga tushishga sababchi kasalliklar sifatida qandli diabet, arterial gipertoniya,

semizlik, yurak – qon tomir kasalliklari, buyraklar surunkali kasalliklari qayd qilinadi [12, b. 458 – 64; 18, b. 1966]. Shunga qaramasdan ushbu nozologiyalarni kasalxonaga tushishga olib kelish ta'sirlari yetarlicha o'rganilmaganligi yoki bu borada metodologik yondashuvlar yetarlicha emasliklari ham tadqiqotchilar tomonidan eslatiladi [15, b. 790 - 4].

Shifoxonaga tushish ehtimoli va xavfini oshiruvchi omillar/komorbid kasalliklar sifatida, komorbid – 19 infeksiyasi bilan bemorlar, tadqiqotchilar quyidagilarni tasdiqlab qayd qilishgan: Zhou F et al (2020) – yoshni [20, b. 1054 - 62], Grasselli et al (2021), Iman Z et al (2020) va Cecconi M et al (2020) keksalikni ko'rsatishdiki, ular qardosh kasalliklarda xisobga olinmasa o'limni asosiy prediktorlari va Covid – 19 klinik og'irlik darajasini belgilashda kalit omil bo'lib xisoblanishadi [13, b. 2020; 14, b. 469 – 76; 10, b. 1548].

Covid – 19ni dolzarbligi yana shundaki, yuqorida qayd etib o'tilganidek, u barcha axoli populyatsiyalarini bir xil qamrab olib o'tadigan yuqumli kasallik xisoblanadi. Tibbiyot xodimlari orasida xam uning aloxida dolzarbligini ko'rsatib o'tish kerak bo'ladi yoki adabiy manbalarda bu masala aloxida ko'tariladi.

Ulardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin: 1) kasbiy kasalliklar orasida, tibbiyot xodimlarida, yetakchi o'rinni yuqumli kasalliklar egallashadi, 2) 2020 yildan boshlab Covid – 19, tuberkulezni o'rniga, kasbiy kasallik sifatida tibbiyot xodimlariga to'qnash kelgan, 3) bu populyatsiyada xam Covid – 19ning og'ir shakllarini kelib chiqishida va o'lim xolatini ko'paytirishda keksalik yoshi xamda qardosh kasalliklarni mavjudligi (qandli diabetni, yurak – qon tomir kasalliklarini, o'pkaning surunkali kasalliklarini, immunotanqislik xolatlarini, boshqa noinfeksion surunkali kasalliklari) xatar omil sifatida ko'rsatiladi/tasdiqlanadi [9, b. 30 - 36].

Xulosa

Jahon miyosida Covid – 19 pandemiyasiga bag'ishlanib olib borilgan tadqiqotlar va ularga bag'ishlangan nashrlar oqimini ko'payganligi va tobora ortib borishga davom etayotganligi adabiyotlar sharhidan bo'ladi yoki ular o'quvchi – tadqiqotchida shunday xulosa tug'diradi. Bu, so'zsiz, Covid – 19 infeksiyasida xaligacha "sirlar" saqlanib qolayotganligidan dalolat beradi.

Bu muammolar orasida Post - Covid – 19 assotsirlangan ovqat xazm qilish tizimining kasalliklarini epidemiologiyasini o'rganish, profilaktikasi va davolash usullarini tubdan takomillashtirish masalasini ko'ndalang va o'tkir tibbiy – ijtimoiy muammo sifatida qo'yilganligiga ham shoxid bo'linadi. Adabiyotlar sharhidan, shubhasiz, shunday xulosa kelib chiqadi yoki shunday mulohaza qilish mumkin bo'ladi.

Birinchi bayon qilingan sharhga xulosa va muloxaza shuki, profilaktik gastroenterologiya zamonaviy tibbiyotda, masalan Post – Covid – 19 populyatsiyasi misolida rivojlanib o'z o'rnini topa boshlagan va uni takomillashtirib borish bo'yicha asosli ko'rsatma xamda tavsiyalarga ilmiy – ustuvor qarashlar ko'lami ortgan.

Ilmiy tadqiqotlarning mavzularini va yo'nalishlarini belgilashda ularni e'tiborga olish kerak bo'ladi.

Adabiyotlar sharhidan ikkinchi, bizning fikrimizga, o'ta ilmiy – amaliy xulosa kelib chiqadi: Post – Covid – 19 assotsirlangan ovqat xazm qilish tizimining kasalliklarini zamonaviy epidemiologik, klinik – farmako – terapevtik va profilaktik jihatlarini o'rganish darajasi mutlaqo talabga javob bermaydi. Mavjud ma'lumotlarni profilaktik tibbiyot nuqtai nazardan taxlil qilinib va o'rganilib chiqishga zarurat va ehtiyoj kelib chiqqan.

Yana bir uchinchi xulosa, keltirilgan adabiyotlar sharhidan kelib chiqadi, Post – Covid – 19 assotsirlangan ovqat xazm qilish tizimining kasalliklarini profilaktikasi va davolash usullarini tubdan takomillashtirilgan dasturlarni ishlab chiqish xolatlarini va ularni asoslash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha o'tkazilmagan.

Bunday mazmunli va yo'nalishli xududiy tadqiqotlarga urg'u berib ularni kengaytirish xamda amalga oshirish – tibbiy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Барановский А.Ю., Беляев А.М., Кондрашина Э.А. По-казатели заболеваемости и смертности от болезней органов пищеварения в СЗФО России и меры, принимаемые по их снижению. Рос. журн. гастроэнтерологии, гепатологии, колопроктологии. 2019;29(1):36-46.
2. Бутов М.А., Кузнецов П.С., Маслова О.А. Язвенная болезнь это психо-вегето-соматическое или инфекционное заболевание? Эксперим. и клин. гастроэнтерология. 2012;8:82-91.
3. Ивашкин В.Т., Маев И.В., Царьков П.В., и др. Диагностика и лечение язвенной болезни у взрослых (Клинические рекомендации Российской гастроэнтерологической ассоциации,

- Российского общества колоректальных хирургов и Российского эндоскопического общества). Рос. журн. гастроэнтерологии, гепатологии, колопроктологии. 2020;30(1):49-70.
4. Корочанская Н.В., Дурлештер В.М., Ковалевская О.В., и др. Показатели заболеваемости и смертности от болезней органов пищеварения в Краснодарском крае и качество оказания медицинской помощи гастроэнтерологическим пациентам. Рос. журн. гастроэнтерологии, гепатологии, колопроктологии. 2019;29(4):30-7.
 5. Леонченко С.В., Петюшкин В.Н., Мотин А.П., и др. Клинический случай хирургического лечения пептической язвы гастроэнтероанастомоза. Наука молодых (Eruditio Juvenium). 2021;9(1):101-6.
 6. Лизинфельд И.А., Пшеничная Н.Ю., Паролина Н.Ю., Журавлева Г.Ю. и др. Оценка факторов, влияющих на вероятность госпитализации больных Covid – 19 с сопутствующей патологией, и разработка на их основе прогностической модели // Терапевтический архив. – 2022. – 94 1. – С. 57 – 63.
 7. Ножкина Н.В., Зарипова Т.В., Бессонова Е.Н. Современные ме-дико-социальные аспекты смертности населения от болезней органов пищеварения. Здоровье населения и среда обитания. 2018;12(309):47-52.
 8. Система поддержки принятия врачебных решений. Гастроэнтерология: Клинические протоколы лечения. // Сост. Д.С. Бордин и др. – М. : НИИОММ ДЗМ, 2021.
 9. Стрижаков Л.А., Марченков Р.Е., Шоломова В.И. и др. Covid - 19 у медицинских работников: социально – демографические и клинические особенности при экспертизе связи заболевания с профессией // Профилактическая медицина. – 2024. – Т. - № 27. С. 30 – 36.
 10. Cecconi M, Piovani D, Brunetta E, et al. Early Predictors of Clinical Deterioration in a Cohort of 239 Patients Hospitalized for Covid-19 Infection in Lombardy, Italy. J Clin Med. 2020;9(5):1548. DOI:10.3390/jcm 9051548.
 11. Chen T.H., Cheng H.T., Yeh C.T. Epidemiology changes in peptic ulcer diseases 18 years apart explored from the genetic aspects of Helicobacter pylori // Transf Res. - 2021;232:115 – 19. Doi. 10.1016/j. trsi. – 2020. – 12. 006.
 12. Garg S, Kim L, Whitaker M, et al. Hospitalization Rates and Characteristics of Patients Hospitalized with Laboratory – Confirmed Coronavirus Disease 2019 – Covid – Net, 14 States, March 1 – 30, 2020. MMWR Morb Mortal Wkly Rep. 2020;69(15):458 – 64. DOI:10.15585/mmwr.mm6915e35.
 13. Grasselli G, Zangrillo A, Zanella A, et al. Baseline Characteristics and Outcomes of 1591 Patients Infected With SARS-CoV-2 Admitted to ICUs of the Lombardy Region, Italy [published correction appears in JAMA. 2021 May 25;325(20):2120]. JAMA. 2020;323(16):1574-81. DOI:10.1001/jama.2020.5394.
 14. Imam Z, Odish F, Gill I, et al. Older age and comorbidity are independent mortality predictors in a large cohort of 1305 COVID-19 patients in Michigan, United States. J Intern Med.2020;288(4):469-76. DOI:10.1111/joim.131191.
 15. Killerby ME, Link-Gelles R, Haight SC, et al. Characteristics Associated with Hospitalization Among Patients with COVID-19 – Metropolitan Atlanta, Georgia, March–April 2020. MMWR Morb Mortal Wkly Rep. 2020;69(25):790-4. DOI:10.15585/mmwr.mm6925e17.
 16. Leow AHR, Lim Y.Y., Liew W.C., Goh K.L. Time trends in upper gastrointestinal diseases and Helicobacter pylori infection in a multiracial. Asian population – A 20 – year experience over three time periods // Aliment Pharmacol Ther. 2016;43(7): 831 – 7. Doi:10.1111/apt. 13550.
 17. Moreno-Pérez Ó, Andrés M, León-Ramirez JM, et al. The COVID-GRAM Tool for Patients Hospitalized With COVID-19 in Europe. JAMA Intern Med. 2021;181(7):1000-1. DOI:10.1001/jamainternmed.2021. 04913.
 18. Petrilli CM, Jones SA, Yang J, et al. Factors associated with hospital admission and critical illness among 5279 people with coronavirus disease 2019 in New York City: prospective cohort study. BMJ. 2020;369:m1966. DOI:10.1136/bmj.m1966.
 19. Yang X, Yu Y, Xu J, et al. Clinical course and outcomes of critically ill patients with SARS-CoV-2 pneumonia in Wuhan, China: a single-centered, retrospective, observational study [published correction appears in Lancet Respir Med. 2020 Apr;8(4):e26]. Lancet Respir Med.2020;8(5):475-81. DOI:10.1016/S2213-2600(20)30079-54.
 20. Zhou F, Yu T, Du R, et al. Clinical course and risk factors for mortality of adult inpatients with COVID-19 in Wuhan, China: a retrospective cohort study [published correction appears in Lancet. 2020 Mar 28;395(10229):1038] [published correction appears in Lancet. 2020 Mar 28;395(10229):1038]. Lancet. 2020;395(10229):1054-62. DOI:10.1016/S0140-6736(20)30566-3.
 21. Zou X, Li S, Fang M, et al. Acute Physiology and Chronic Health Evaluation II Score as a Predictor of Hospital Mortality in Patients of Coronavirus Disease 2019. Crit Care Med. 2020;48(8):e657-65. DOI:10.1097/CCM.00000000 000044112.

Qabul qilingan sana 20.06.2025